



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



BO'LAJAK CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM O'QITUVCHILARINING KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Tojiyev Xakimjon Xoliqovich

Farg'onan Davlat Universiteti, Harbiy ta'lif fakulteti, katta o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik shakllanishini ta'minlovchi talablar, harbiy ta'lif mashg'ulotlarida yangi pedagogik innovatsion texnologiyalarni qo'llash, bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lif o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatiga tayyorlash komponentlari, o'qitishning maqsadi va vazifalari, o'quv materiallarining mazmuni, mashg'ulotlarni tashkil etish metodlari, vositalari va shakllari hamda o'quv jarayonining yakuniy natijalaridan iborat bo'lgan metodik tizimlar haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lif, Innovatsiya, komponentlar, "Chaqiriqqacha harbiy ta'lif", mezonlar, tamoyillar, pedagogika, texnologiya.

Ta'limi texnologiyalashtirish - bu o'qitish jarayoniga texnologik yondashish asosida ta'lif maqsadlariga erishishning eng maqbul ho'llari va samarali vositalarni tadqiq qiluvchi hamda qonuniyatlarni ohib beruvshi pedagogik yo'nalishidir.

Ta'lif texnologiyasi – bu o'quv jarayonini mavjud sharoitlarda, belgilangan vaqt davomida rejalashtirilgan natijalarga kafolatli erishishga va ta'lif-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishni ta'minlovchi usul va vositalarining tartibli birligini o'zida mujassamlashtiradigan ta'lif modelini ishlab chiqish va amalga oshirishning texnologik jarayoni hisoblanadi.

Ta'lif texnologiyasi butun o'qitish va o'rgatish jarayonini yaratish, amalga oshirish va baholashning tizimli usuli bo'lib u o'quv maqsadiga erishishga yo'naltirilgan holda insonlarning o'rganish qobiliyati va ular o'rtasida muloqot o'tkazish, tadqiqotlar natijasiga hamda ta'lif jarayonini yanada samarali tashkillashtirishning jonli va jonsiz vositalari bilan shug'ullanishga asoslanadi.

Tadqiqotlar va pedagogik adabiyotlarda zamonaviy o'qitish texnologiya- larini tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy buyurtma sifatida mavjud davlat talablariga mosligini loyihalash;
- insonrarvarlik va demokratik xarakterda bo'lish;
- yaxlitlik birligi;
- ilmiylik;
- nazariya bilan amaliyotning birligi tamoyillari.

Ushbu tamoyillar zamonaviy ta'lif sharoitida mustaqil va erkin fikrlovshi shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi.

Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lif o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlanishda quyidagi sifatlar muhim hisoblanadi:





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



- shaxsiy sifatlar va yo‘nalganlik (vatanparvarligi, qiziqishi, qadriyatları yo‘nalishi, motivatsiya);
- ma’lumot darajasi (bilim, ko‘nikma va malakalarini doimiy ravishda boyitishga intilishi va mahorati);
- tarbiyalanganlig darajasi (ma’naviy, estetik, jismoniy, kasbiy, madaniy);
- ijtimoiylashish (kasbiy va ijtimoiy faoliyatini tashkil etishga tayyorligi, bilim olishni davom ettirish, ijtimoiy qoidalar va qadriyatlarni idrok qilish);
- madaniyatilik (ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni idrok qila olishi, intellektual, aqliy, jismoniy madaniyat, munosabatlari mazmuni va xulq-atvori).

Zamonaviy o‘qituvchining kasbiy-pedagogik shakllanishini ta’minlovchi talablar ikki guruhga bo‘linadi:

- o‘qituvchining turli darajadagi muammolarni hal etishga tayyorlarligini ta’minlovchi ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy ahamiyatga ega mahoratiga;
- individual sifatlarning shakllanishining tayyorligini ta’minlashga xizmat qiluvshi fundamental bilimlarni mazmuni va darajasiga.

O‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo‘llash algoritmini takomillashtirish asosida, umumkasbiy fanlar bo‘yicha o‘quv axborotni ko‘rgazmali-obrazli va izshil-mantiqiy tarzda havola etishni texnologiyalashtirish metodi ishlab chiqilgan. Kasbiy faoliyatga tayyorlashga qo‘yilayotgan zamonaviy didaktik va metodik talablarni amalga oshiruvchi, umumkasbiy fanlar bo‘yicha o‘quv materiallarni havola etish shakllarini aks ettiruvchi hamda interfaol o‘quv muloqotini ta’minlovchi yaxlit tizim sifatida o‘qitishni modulli tuzilma asosida tashkil etish variantlari ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda bo‘lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kreativ sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlari, jismoniy va aqliy harakatlar uyg‘unligining pedagogik-psixologik xususiyatlari, mashqlarni bajarish faolligiga ko‘ra aniqlash hamda aksiologik yondashuv samaradorligini ta’limiy maqsadlarga mos ta’minlashning fundamental tamoyillarini joriy etishga ustuvorlik berish asosida takomillashtirish yo‘llari ishlab shiqilgan.

Olimlarning fikricha, pedagogning texnologik kompetentliliği - mavjud pedagogik tizim obyektlarini o‘zgartirish faoliyatida qo‘llaniladigan kreativ-texnologik bilimlar, qobiliyatlar va stereotirlar tizimidir. U bilim olish faoliyatining amaliy va intellektual mexanizmlarini takomillashtirish, didaktik vositalar yordamida o‘qish-o‘rganish faoliyatining rejasini tuzish, o‘quv faoliyatlarini rejalshtirish, boshqaruv hamda shakllantirishni tartibga keltirishning pedagogik texnologik asoslari hisoblanadi.

O‘qituvchilarining shaxsiy modelini tuzish va uning asosida kasbiy-pedagogik tayyorgarlikni takomillashtirish muammoini taniqli pedagog M.N.Skatkin tadqiq etgan.

Kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning metodologik asosini quyidagi yondashuvlar tashkil etadi: shaxsiy, kompetentli, faoliyatli, kontekstli va boshqalar. Bo‘lajak



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



chaqiriqqacha harbiy ta'lif o'qituvchisini kasbiy tayyorlash asoslarini omillar, manbalar, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, tamoyillar va zamonaviy yondashuvlar tashkil etadi.

Shaxs nuqtai nazaridan yondashuv o'quv jarayonini loyihalash va tashkil etishda bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lif o'qituvchilarini tayyorlashda faolligiga tayanishni nazarda tutadi. U bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lif o'qituvchi shaxsining o'ziga xosligini e'tirof etishni va ta'lif jarayonida shaxsning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishni ko'zda tutadi.

Shaxsiy-ijodiy komponent –bu bo'lajak mutaxassislarini kasbiy shakllantirish va o'z-o'zini namoyon etish yo'li bilan texnik va texnologik madaniyatni egallashning kreativ mexanizmlarini ochib beradi, boshqa tomondan esa u texnik fikrlash va dunyoqarash asoslarini shakllanganlig darajasini tavsiflab beradi.

Faoliyatli yondashuv – bu bo'lajak o'qituvchi shaxsining o'ziga xos faoliyati jarayonida shakllanishi va namoyon bo'lishidan kelib chiqadi. O'qitish jarayoni uning barcha asosiy komponentlari, ya'ni ehtiyojlari, motivlari, maqsadlari, faoliyat elementlari, muvofiqlashtirish usullari, erishilgan natijalarini nazorat va tahlil qilishning birligi hamda o'zaro bog'liqligida quriladi. Bu asosiy komponentlar shaxsiy sifatlar asosida talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlarini ko'rsatib beradi.

Faoliyatli komponent – bu umumkasbiy va maxsus fanlarni o'qitish hamda talabalarni tarbiyalash masalalarini hal etish usullarini o'z ichiga oladi. Bo'lajak o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida kompetentli yondashuvni qo'llash ta'lif jarayonining amaliy yo'nalanligini ta'minlash (kasbiy kompetentlikni shakllantirish) shu bilan birga, amaliyotda ko'p ushraydigan muammoli-vaziyatlari masalalarini aniqlash, ularni yechish algoritmini tuzish, undan foydalanish va loyihalash faoliyatini tashkil etishga yo'naltiriladi.

Texnologik yondashuvda:

- 1) bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lif o'qituvchi faoliyatli nuqtai nazaridan yondashadi;
- 2) faol idrok qiladi;
- 3) kasbiy-pedagogik faoliyatga oid bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi kasbiy vaziyatlarni hal etish kontekstida o'zlashtiriladi;
- 4) ta'lifning faol va interfaol metodlaridan foydalaniladi;
- 5) kasbiy komponentlilik belgilari yanada yaqqol ifodalangan o'quv axborotidan foydalanish tajribasini egallaydi;
- 6) o'quv, ilmiy va kasbiy faoliyat integratsiyasi muammosi pedagogik hal etiladi.

Ta'lif jarayonini to'g'ri tashkil etish va bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lif o'qituvchilaridan kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini nazariy va amaliy asoslarini, fanga doir kompetensiya va kompetentlikni chuqr bilishlari talab etiladi.

Ushbu o'quv fanlarining maqsadi - O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kushlari umumharbiy nizomining qonunchilik asoslari va uning talablari, mazmuni, bo'limlardagi ichki tartib-qoidalari va yuqori harbiy intizom, qo'l ostidagilarni yuqori ma'naviy-ma'rifiy





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



va harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usul va shakllari, sutkalik naryadni, vzwod bo'yicha navbatshilagini tashkillantirish asoslarini puxta biladigan, namunaviy tashqi ko'rinish va shaxsiy saf uquviga ega bo'lgan, mashg'ulotlarni tashkil qilish va metodik nuqtai nazardan to'g'ri olib borish hamda bo'linmalar saflarini ishonchli boshqarishga qodir bo'lgan ofitserlarni tayyorlashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abilov M.X. Qurolli Kuchlarda tarbiya va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tashkil etilishi. Maqolalar to'plami. "Vatan himoyasi—muqaddas burch". T.:O'zbekiston. 2001.
2. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta'lif jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti.: Avtoref.dis. ... ped. fan. dokt.-T.:2007.
3. Nadarova.O.Q. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvga tayyorlash: Diss. ... ped. fan. nomz. –T.: 2005.
4. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. Des. fal dok (RhD).T. 2017.
5. Nikandrov N.D. Pedagogicheskoe tvorchestvo. –M: Pedagogika, 1990.
6. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta'lif texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: "Sano-standart", 2015. –
7. Najmiddinova.N.U. Kollej talabalarida amaliy tayyorgarlikni shakllantirish metodikasini komretensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish. 13.00.05- Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi.-T., 2018.
8. Rafiqova.D.K. Amaliy ta'lif va faoliyatiy yondashuv - talabalarning amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning muhim omili sifatida// muallim 1 maxsus son issn: 2181-0850 tosnkent-2022.
9. Skatkin M.N. Problemi sovremennoy didaktiki. –M.: Pedagogika, 1984.
10. Ubaydullayev SH. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik bo'yicha o'quv qo'llanma II-qism.Toshkent-2003 y.
11. O'razova M.B., Eshrulatov Sh.N. - Bo'lajak o'qituvchining loyihalash faoliyati. Metodik qo'llanma. T.: TDRU Rizografi, 2014 uil.
12. Sharirov.Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dok. ... dis. avtoref. –T., 2012.

